

O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasidagi tarixiy voqea: Uzbekistan Airways Technics rivojlanishining yangi bosqichi

2026 8 May

Bugun, 8-may kuni tarkibiy bo‘linmamiz – Uzbekistan Airways Technics negizida chinakamiga tarixiy voqea yuz berdi. Aviakorxonaning yuqori malakali mutaxassislari tomonidan ta‘mirlash ishlari yakunlangach, bevosita havo kemasi qanotida dvigatelni sinovdan o‘tkazish (On-Wing testing) kabi o‘ta murakkab amaliyot muvaffaqiyatli bajarildi. Ushbu jarayon General Electric (GE) korporatsiyasining rasmiy vakili qat‘iy nazorati ostida bo‘lib o‘tdi. Sinovlar aynan Boeing 787 Dreamliner havo kemasida o‘tkazilgani ushbu voqeaga alohida ahamiyat bag‘ishlaydi.

Ushbu muhim yutuqqa erishishdan oldin General Electric korporatsiyasi bilan keng ko‘lamli hamkorlik ishlari amalga oshirildi. Aviakorxonaga mutaxassislari tomonidan jadal o‘quv kursi o‘taldi, tegishli xalqaro sertifikatlar olindi, shuningdek, Engine split (dvigatelni qismlarga ajratish) va GENx-1B dvigateli qismlarini ulash/ajratish tartib-qoidalari mukammal o‘zlashtirildi. Tayyorgarlik tadbirlarining ulkan majmuasi amalga oshirilgani sharofati bilan Uzbekistan Airways Technics o‘z texnik rivojlanishining keyingi, yanada yuqori bosqichiga dadil qadam qo‘ydi.

– “2023-yilda boshlangan loyiha Uzbekistan Airways va General Electric o‘rtasidagi strategik hamkorlikni rivojlantirishda muhim qadam bo‘ldi. Ushbu ilg‘or texnologiyani muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun biz Uzbekistan Airways Technics mutaxassislari Dohaga jadal o‘quv kursiga yubordik. Uch oy davomida ular nafaqat o‘z malakalarini oshirdilar, balki nufuzli xalqaro sertifikatlar sohibiga aylandilar. Men ushbu yutuq va umumiy ishga sodiqligi uchun aviakorxonamizning har bir xodimiga hamda General Electric’dagi hamkasblarga o‘z minnatdorchiligimni bildiraman», – deya ta‘kidladi “Uzbekistan Airways Technics” MChJ direktori Farxod Ibragimov.



- “Bunday darajadagi vazifalarni amalga oshirish boy amaliy tajribaga ega yuqori professional jamoa ishtirokini talab etadi. Uzbekistan Airways Technics mutaxassislari bilan birgalikda biz chinakamiga ulkan ishlarni amalga oshirdik. Ushbu muvaffaqiyatli loyiha nafaqat hamkorligimizni mustahkamlaydi, balki havo kemalariga texnik xizmat ko’rsatish muddatlarini maksimal darajada maqbullashtirish imkonini beradi”, - deya qayd etdi GE Aviation fuqaro aviatsiyasiga texnik xizmat ko’rsatish bo’limi bosh muhandisi Igor Zabelin.

Ushbu innovatsion dasturning muvaffaqiyatli bajarilishi asrlig tarixga ega aviakorxonaning nufuzi va imijini mutlaqo yangi xalqaro darajaga ko’taradi. Bugungi

kunda Uzbekistan Airways Technics g'urur bilan butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha keng ko'lamli ishlarni taklif etmoqda.

Eslatib o'tamiz, Uzbekistan Airways Technics - bu Uzbekistan Airways kompaniyalar guruhining bir qismi hisoblanadi. Aviakompaniyamiz mintaqada Boeing 787 laynerlaridan foydalanadigan yagona aviatashuvchi maqomiga ega ekanligidan faxrlanadi. Bundan tashqari, Uzbekistan Airways butun MDH hududida Nyu-Yorkka muntazam to'g'ridan-to'g'ri transatlantik qatnovlarni amalga oshiruvchi yagona aviakompaniya bo'lib qolmoqda.



- "Ilgari ushbu dvigatelni xorijga jo'natish, ta'mirlash va qaytarishning to'liq sikli uch oydan olti oygacha vaqtni olar edi. Tashish jarayonining o'zi tor doiradagi maxsus yuk havo kemalarini jalb qilishni talab etuvchi o'ta murakkab logistik vazifa hisoblanardi. Endilikda, o'zlashtirilgan texnologiya sharofati bilan dvigatelni qismlarga ajratilgan holda standart turdagi yuk samolyotlarida tashish mumkin. Bu logistikani tubdan soddalashtiradi va bizga murakkab texnik hamda ekspluatatsion vazifalarni iloji boricha tezkorlik bilan hal qilish imkonini beradi", - deya xulosa qildi Uzbekistan Airways'ning Parvozga yaroqlilikni saqlash departamenti direktori Minur Beshatov.

Har bir xavfsiz va qulay parvoz ortida ulkan jamoaning mashaqqatli mehnati mujassam. Bu - mintaqadagi eng yirik korxonaga bo'lgan Uzbekistan Airways Technics'ning asrlik tajribasi va Yevropaning EASA oliy standartlariga qat'iy muvofiq holda professional aviatorlarning yangi avlodini uzluksiz tarbiyalayotgan O'quv-mashq markazimizning ilg'or innovatsiyalaridir.